

REY BREDBERINING FARENGEYT 451 ASARIDA DISTOPIK NUTQ

Hakimova Ruxshona Xaqqul qizi
*Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti talabasi*
Email- hakimovaruxshona691@gmail.com
Tel: 336609901

Annotatsiya: Ushbu maqolada distopik adabiyotning mohiyati va u orqali jamiyatdagi senzura, nazorat hamda inson erkinligi masalalarining aks etishi tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Rey Bredberining Farengeyt 451 asari va uning o‘zbek tiliga tarjimasi turadi. Asarda fikr erkinligining yo‘qolishi, insoniy qadriyatlarning so‘nishi va bilimning xavf sifatida talqin etilishi kabi g‘oyalar yoritiladi. Maqolada tarjima jarayoni faqat til o‘zgarishi emas, balki madaniy va mafkuraviy qatlamlarning qayta talqin qilinishini ham o‘z ichiga olishi ta‘kidlanadi. Nida (1964) ning ekvivalentlik nazariyasi, Venuti (1995) ning tarjimon strategiyalari hamda Booker (1994) tomonidan ilgari surilgan distopik adabiyot tahlili asosida asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi lingvistik va stilistik tafovutlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: distopiya, tarjima nazariyasi, Farengeyt 451, madaniyataro ekvivalentlik, ideologik ma‘no, Nida, Venuti, Bredberi.

Distopik adabiyot uzoq yillar davomida turli sivilizatsiyalarning qo‘rquv va qarama-qarshiliklarini ko‘rsatib beruvchi adabiy yo‘nalish hisoblanadi. George Claeys (2017) fikricha, distopiya “utopiyaning qorong‘u tarafi” hisoblanib, qanday qilib “mukammallik” senzura, insonlar va ularning o‘y-fikrlari ustidan doimiy nazoratni keltirib chiqarishini ko‘rsatadi. Utopiyada ko‘klarga ko‘tarilgan ideal jamiyat bir paytning o‘zida distopik ko‘rinish olishi, “yolg‘on” mukamallikni yaratishi mumkin. L. T. Sargent (1994) distopiya mutloq hokimiyatni tanqid qilish bilan bir qatorda texnologiyalar ustunlik qiluvchi zamonda shaxs va erkinlik tushunchasining yo‘qolishidan ogohlantiruvchi vazifasini bajarishini ta‘kidlaydi.

Bu mavzularni yoritib beruvchi bir qator asarlar mavjud bo‘lib, ushbu maqolada Rey Bredberining Farengeyt 451 (1953) asari asosiy tadqiqot materiali qilib olindi. Farengeyt 451 asari kitoblar yoqilgan va fikrlash jinoyat hisoblangan jamiyat tasvirlangan bo‘lib, Ikkinchi jahon urushidan keyin Sovuq urushning qo‘rquvi avj olgan davrda yozilgan. Booker (1994) Bredberining asarini Amerikadagi urushdan keyingi xavotirlarni tasvirlab,

ommaviy axborot vositalarining ko‘payishi, fikriy bir xillik va iste‘molchilikning ta‘sirini yoritib beruvchi asar sifatida ko‘radi.

Bu kabi dunyoda doimiy lazzatlanish loqaydlikka olib kelib, bilim isyonkor kuch sifatida ko‘riladi. Romanning bosh qahramoni Gay Montag mashinalashtirilgan boshqaruvga qarshi chiqqan inson ongining qiyinchiliklarini ifodalaydi, fikriy qaramlikdan sekinlik bilan halos bo‘ladi. Bredberi metafora, ritm, ramzlardan oqilona foydalanib utopik jamiyatga teskari vaziyatni ifodalovchi “distopik nutq” yozuv uslubini yaratadi.

Bu kabi matnlarni tarjima qilish so‘zlarni bir tildan ikkinchisiga o‘tkazish bilan chegaralanib qolmay, ma‘lum ma‘noda ideologik va madaniy qatlamlarni qayta yaratishni talab qiladi. Nida (1964) o‘zining dinamik ekvivalentlik nazariyasida yaxshi tarjima asl matndagi ta‘sirni tarjima tilda ham ifodalashni muhim deb hisoblaydi. Shu qatorda Venuti (1995) tarjimini madaniyat va mafkura orqali shakllangan tahlil jarayoni sifatida ko‘radi. Farengeyt 451 asarida ohang, metafora va kinoya g‘oyaviy ma‘nolarni ifodalab, tarjimon oldiga asarni mahalliyashtirish yoki yozuvchining maqsadini yetkazib berish tanlovlarini vujudga keltiradi.

O‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixan senzura va mafkuraviy boshqaruvni boshidan kechirgan bo‘lib, xususan Sovet ittifoqi davrida o‘zbek kontekstida bu holat yanada murakkablashgan. Shu sababli Farengeyt 451 asari tarjimasi faqat lingvistik holat bo‘lib qolmay, bir tilga xos madaniy ma‘nolarni boshqa tilda aks ettirish jarayonidir. Misol tariqasida Bredberining “yoqish”, “sukut”, “xotira” kabi metaforalari o‘zbek tiliga tarixiy-madaniy kontekstda yetkazilmasligi bir qator tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ingliz tilidagi “burning books” (kitoblarni yoqish — bilim va fikr erkinligini bostirish) universal semantikaga ega bo‘lib, o‘zbek o‘quvchilari uchun Sovet davridagi repressiyalarni eslatishi mumkin. Shu bois tarjima jarayoni madaniy tasvirni ham qamrab oladi.

Tarjima nazariyasi asoschilari Susan Bassnett (2002) va Peter Newmark (1988) badiiy tarjima jarayonida semantik aniqlik va kommunikativ ta‘sir bir me‘yorda bo‘lishi kerakligini aytadi. Distopik korpus tarjimasida asliyatni saqlab qolish va mafkuraviy konfliktni o‘zbek tilida tabiiy tarzda ifodalash muhim ahamiyatga ega. Tarjimon Bredberining o‘ziga xos uslubini saqlab qolish yoki madaniyatga moslashtirish jarayonini Venuti (1995) ning mahalliyashtirish va asliyatni saqlash nazariyalari asosida amalga oshirishi mumkin.

Ushbu maqola Rey Bredberining Farengeyt 451 asari o‘zbek tiliga tarjima jarayonida jamiyatdagi muammolar, senzura va insoniyatning begonalashuvi kabi lingvistik va stilistik holatlarning tillararo qanday o‘zgarganini, tarjimonning hissiy va mafkuraviy ma‘noni asliyatda saqlab qolish darajasini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot matnlarni taqqoslash hamda

diskurs tahlili usullari asosida Nida (1964) ning ekvivalentlik nazariyasi, Venuti (1995) ning tarjimon uslubi va Booker (1994) ilgari surgan distopik adabiyot tanqidi nazariyalariga tayangan. Asarning ingliz tilidagi asl nusxasi va uning o‘zbekcha tarjimasidan tanlab olingan parchalar lingvistik, stilistik va g‘oyaviy o‘zgarishlar jihatidan tahlil qilinadi. Bunday yondashuv Bredberining distopik uslubini tarjima tahlili orqali yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Booker, M. K. (1994). The dystopian impulse in modern literature: Fiction as social criticism. Greenwood Press.
2. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.
3. Bradbury, R. (1953). Fahrenheit 451. Ballantine Books.
4. Claeys, G. (2017). Dystopia: A natural history. Oxford University Press.
5. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
6. Rashidova, N. (2020). THE ARABIC LOANWORDS IN EDUCATION TERMINOLOGY: LINGUISTIC AND STATISTICAL ANALYSIS. The Light of Islam, 2020(4), 138-146.
7. Sargent, L. T. (1994). The three faces of utopianism revisited. Utopian Studies, 5(1), 1–37.
8. Seed, D. (2000). The flight from the good life? Fahrenheit 451 in the context of postwar American dystopias. In H. Bloom (Ed.), Ray Bradbury (pp. 89–108). Chelsea House.
9. Venuti, L. (1995). The translator’s invisibility: A history of translation. Routledge.